

## BAHOR - UYG'ONISH FASLI

To'xtayeva Lola Rustam qizi

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bahor yangilanish fasli va navro'z bayrami haqida bayon qilingan. Xususan, bu bayram xalqimiz orasida keng nishonlanayotganligi jumladan, Buxoro tumani 37-sonli maktab o'quvchilari tomonidan yuqori kayfiyatda kutib olinganligi aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bahor, fasl, navro'z, milliylik, halim, sumalak, lapar, ona tabiat, bayram.*

Bahor gullaridan guldasta sizga  
Chin qalbim tabrigi payvasta sizga  
Bir asr yashanggu, yana nim chorak  
Navro'zi Olam bo'lsin muborak!

Bahor fasllar gulshani, uyg'onish fasli. Butun borliq, ona tabiat barq urib yashnaydi, yangilanadi. Tirik jonzot borki, bu fasldan bahra oladi, jonlanadi. Turkiy xalqlar ham Navro'z bayramini, ya'ni yangi kunning tug'ilishini aynan bahor faslida nishonlashi bejiz emas. Navro'z - bahor, yangi yil bayrami. "Navro'z" atamasi ikki fors so'zidan tashkil topgan bo'lib "nav" - yangi, "ro'z" - kun ya'ni, "yangi kun" degan ma'noni bildiradi. Navro'z - turkiy xalqlarning eng ommaviy va go'zal bayramidir.

Navro'zi olamni biz barcha sharq xalqlari qatorida azal-azaldan 1000 yillar davomida e'zozlab, umumxalq bayrami sifatida qadrlaymiz. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng navroz umumxalq bayramlaridan biri sifatida keng nishonlanadigan bo'ldi, 21- mart dam olish kuni deb e'lon qilindi.



Bayram shukuhi Buxoro viloyati Buxoro tumani 37-sonli maktabda ham davom etmoqda. O'quvchi qizlarimiz milliy liboslarda milliylikimizni namoyon etishyapdi, qozonlarda halim, sumalaklar qaynab yuzni quvontiradi tadbir jarayonida 5a- sinf hamda 5b- sinf o'quvchilari tomonidan she'r, kuy hamda raqs, laparlar ijro etildi.

Men amaliyotchi sifatida bu tadbirni tomosha qilar ekanman, o'quvchi yoshlarimizning naqadar bilimli va qobiliyatli ekanligiga guvoh bo'ldim. Yosh avlodning zakovatli bo'lib voyaga yetayotganligi yurtimizning iftixori bo'lib, Vatanimiz istiqbolini bundanda y uqori choqqilarga olib chiqa oladi.

Maktabda tashkil etilgan bayram tadbiriga direktor o'rinbosari hamda bir qancha fan o'qituvchilari ham o'z mehnatlarini ayamadilar. Faol ishtirok etgan o'quvchilar hamda oqituvchilar tadbir yakunida maktab direktori tomonidan faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlandilar.



Umuman olganda navro'z bu shunchaki bayram emas, qadimdan ajdodlarimiz tomonidan nishonlanib kelinayotgan muqaddas kundir. Bayram kuni navro'z qo'shiqlari baralla yangraydi, odamlar o'yin- kulgu qilishadi. Bahorga shon-sharaflar o'qiydi. Bir-biriga sovg'alar hadya qiladi, yetimlar va ehtiyojmandlarga zavq bag'ishlanadi.

Bahor keldi o'lkamizga, yana keldi qaldirg'och,  
Humo qo'ndi yelkamizga, borliq bizga bag'ring och .  
Bahor fasli tarovatin, shunda bildim tabiat ,  
Qish ketib bahor keldi, quyosh bobo nuring soch .  
Bahor kelinchak misol, sepin yoydi olamga  
Ko'rib ko'zing quv naydi, boychechagu- lolamga.  
Sen yaproqdagi shabnam, fasllarning sarasi  
Qo'y-qo'zilar o'tlagan, yaylovlarning egasi,  
O'zingdir olam ko'rki, fasllar kelinchagi  
Bolasi orom olgan, kelinchak belanchagi  
Senda hayot mujassam, sen yasharish faslisan  
Yangi yil ibtidosi, yorqin hayot aslisan.